Fanlar akademiyasi prezidenti vodiy viloyatlari yosh olimlari bilan uchrashdi

Xabar berganimizdek, bugun Namanganda Xalqaro fiziklar forum o’z ishini boshladi. Unda dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan olimlar fizika fanini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilishmoqda.

Forum doirasida O’zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Bexzod Yuldashev vodiy viloyatlari yosh olimlari, iqtidorli talabalar bilan uchrashib, ochiq muloqot qildi.



Samimiy va do’stona kayfiyatda o’tkazilgan uchrashuvda yoshlar o’zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Ilm fanni yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar bildirildi.





